

**PEDAGOGIK KOMPETENSIYA VA LINGVISTIKA:  
INTEGRATSIYALASHGAN YONDASHUV**

***Zoitova Shoxista Asqarovna***

*katta o’qituvchisi, O’zbekiston davlat jahon tillari universiteti,  
zoitova\_sh@mail.ru*

**Anatatsiya.** Mazkur maqolada zamonaviy ta’lim tizimida pedagogik kompetensiyaning tutgan o’rni, uning tarkibiy qismlari, shakllanish omillari va ahamiyati tahlil qilingan. Pedagogik kompetensiya – o’qituvchining kasbiy faoliyatini samarali amalga oshirish uchun zarur bo’lgan bilim, ko’nikma va malakalarning majmuasi sifatida izohlangan. Maqolada pedagogik kompetensiyaning asosiy turlari ochib berilgan va bu kompetensiyalarni shakllantirish yo’llari ko’rsatib o’tilgan.

**Kalit so’zlar:** Pedagogik kompetensiya, didaktik kompetensiya, psixologik-pedagogik yondashuv, kommunikatsiya, innovatsiya, ta’lim sifati, kasbiy mahorat.

Zamonaviy ta’lim tizimida o’qituvchining kasbiy faoliyati faqat bilim berish bilan cheklanmaydi. Bugungi kunda o’qituvchi o’z faoliyatida didaktik, psixologik, kommunikativ, axloqiy va innovatsion kompetensiyalarga ega bo’lishi zarur, shu sababli pedagogik kompetensiya tushunchasi ta’lim jarayonining sifatini belgilovchi muhim omilga aylangan. Ushbu maqolada pedagogik kompetensiyaning mohiyati, tarkibi, shakllantirish usullari va uning ta’lim tizimidagi o’rni tahlil qilinadi.

Pedagogik kompetensiyaning mohiyati shundaki – bu o’qituvchining o’z kasbiy faoliyatini samarali amalga oshirish uchun zarur bo’lgan bilim, ko’nikma, malaka va shaxsiy sifatlar majmuasidir. Bu tushuncha o’qituvchining nafaqat o’quvchilarga bilim berish, balki ularning shaxsiy rivojlanishiga hissa qo’shish, ijtimoiy va madaniy qadriyatlarni singdirish, innovatsion yondashuvlarni qo’llash kabi ko’plab jihatlarni o’z ichiga oladi. Dars jarayonida o’qituvchi faqatgina mavzularni o’rgatish bilan cheklanmasdan, ularning real hayotdagi qo’llanilishini ko’rsatadi. masalan, adabiyotlarda uchraydigan voqelikni tahlil qiladi va davr bilan taqoslaydi. Bu o’quvchida fanga qiziqishni oshiradi.

Ta’lim jarayonida, ayniqsa **til o’rgatish**da pedagogik kompetensiya va lingvistik bilimlar o’rtasidagi bog’liqlik juda muhimdir. O’qituvchining **lingvodidaktik bilimlari** – til, nutq, kommunikatsiya, fonetika, morfologiya, sintaksis kabi sohalardagi bilimlari o’z fani bo’yicha chuqur va to’g’ri ta’lim berishda asosiy rol o’ynaydi. Tili o’qituvchisi zamonaviy til o’rganish metodlarini) qo’llab, o’quvchilarning **lingvistik kompetensiyasini** shakllantiradi. Bu faqat grammatikani emas, balki real hayotiy muloqotda tilni to’g’ri qo’llashni ham o’z ichiga oladi.

Til o’rgatish jarayonida **kommunikativ kompetensiya** pedagogik kompetensiyaning ajralmas qismidir. O’qituvchi tilni nafaqat o’rgatishi, balki u orqali samarali muloqotni tashkil qila olishi lozim. O’qituvchisi talabalarni kichik guruhlariga bo’lib, real hayotdagi vaziyatlarga oid suhbat mashqlari tashkil qiladi. Bu orqali o’quvchilar grammatikani amaliy nutq faoliyati bilan bog’laydi – ya’ni **lingvistik va kommunikativ kompetensiya** birlashadi [1].

Til fanini o’qitishda **didaktik kompetensiya** ham muhim ahamiyatga ega. Bu – o’qituvchining ta’lim mazmunini tushunarli, qiziqarli va tizimli tarzda yetkazish qobiliyatidir. Masalan, o’zbek tili darslarida o’qituvchi morfologiya mavzusu asosida dars o’tganda, har bir tushunchani real hayotiy misollar bilan tushuntiradi: masalan, “Belgini sifatlab ifodalash” mavzusini ta’riflabgina qolmay, atrofida mavjud narsa-hodisalarni tasvirlash orqali mashq bajaradi.

O’qituvchisi interaktiv metodlardan foydalangan holda dialog tuzish, debatlar o’tkazish orqali o’quvchilarning kommunikativ va lingvistik salohiyatini oshiradi. Bu jarayonda nutqiy madaniyat, pragmatika, til birliklarining kontekstda ishlatilishi chuqur o’zlashtiriladi.

Demak, lingvistik bilimlar va metodlar o’qituvchining kasbiy mahoratini mustahkamlab, **pedagogik kompetensiyaning ajralmas qismi sifatida** [2] qaraladi. Ayniqsa, chet tili, ona tili, tilshunoslik kabi fanlarni o’qitishda bu bog’liqlik yanada yaqqol ko’zga tashlanadi.

O’zbek tili o’qitish jarayoni nafaqat grammatik qoidalarni o’rgatish, balki **nutqiy faoliyatni rivojlantirish, fikrlashni faollashtirish va kommunikativ salohiyatni oshirish** bilan bog’liq. Shuning uchun, o’qituvchi o’quvchining psixologik holatini yaxshi tushunishi va unga mos yondashuvi zarur.

O’zbek tilini o’qitishda nutqiy ko’nikmani hosil qilishda **o’yinlar, she’rlar, kichik matnlar orqali** yangi so’zlar o’rgatiladi. Guruhda har bir o’quvchiga alohida yondashiladi. Dars jarayonida sustroq talabaga dalda beradi,

faollarga esa rag‘bat yaratadi. Har bir talaba psixologiyasini tushungan holda unga yondashish til o‘qitishda psixologik-pedagogik kompetensiyaning qo‘llanilishidir.

Ko‘plab o‘quvchilar til o‘rganish jarajonida gapirishdan uyaladi yoki xato qilishdan qo‘rqadi. Kompetent o‘qituvchi buni his qilishi va qo‘rquv psixologik to‘siq ekanini tushunish kerak. Bu holatda **qiziqarli guruh mashqlari, rolli o‘yinlar** orqali muhitni yengillashtirish maqsadga muvofiq bo‘ldi. Bu usul o‘quvchini xatolardan qo‘rqmaslikka o‘rgatadi, ijtimoiy-psixologik muhitni sog‘lomlashtiradi – bu esa psixologik-pedagogik kompetensiyaning yaqqol ko‘rinishi.

Til o‘zlashtirishda ba’zi o‘quvchilar uyda kerakli sharoitga ega bo‘lmasligi va til muhitiga duch kelmasligi mumkin. O‘qituvchi bu holatni tushunib, uyga vazifalarni ortiqcha yuklamaydi, aksincha, **dars davomida ko‘proq mashq qilish imkonini yaratadi.**

Bu holatda o‘qituvchi ijtimoiy-psixologik omillarni hisobga olib, ta’lim jarayonini moslashtiradi. **Psixologik-pedagogik kompetensiya** o‘qituvchi o‘quvchilarning yosh xususiyatlari va shaxsiyati bilan ishlay olishini talab etadi [3].

Kommunikativ kompetensiya o‘qituvchi o‘quvchilar bilan samarali muloqot olib borishi va ijobiy muhit yaratishi lozim. Tili o‘qituvchisi darsda har bir o‘quvchiga so‘z berishga harakat qiladi va o‘quvchilarning fikrini erkin ifoda etish imkonini yaratadi. Bu o‘quvchilarda o‘zini erkin his qilish va tilni faol o‘zlashtirishga yordam beradi.

Axloqiy kompetensiya o‘qituvchi faoliyati uchun muhimdir, u o‘z harakati va xulq-atvori bilan o‘quvchilarga ijobiy namuna bo‘lishi kerak.

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, pedagogik kompetensiya – zamonaviy o‘qituvchining kasbiy muvaffaqiyat kalitidir. Bu kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirish orqali ta’lim sifati ortadi, talabalar bilan samarali aloqa yo‘lga qo‘yiladi va kelajak avlodning barkamol yetishishiga zamin yaratiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Yulduz Xayrullakizi Hudoyberdiyeva, Ikromjon Gulomjonovich Tursunov. Ta’lim jarayonida pedagogik kompetensiya tarkibi va tamoyillari. №16, 2023. 106–109-b.

2. Yuldosheva, S. O'quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirish. Ta'lim, fan va innovatsiya. 2015.

3. Fayziyev, M.A., Tugalov, R.G. O'qituvchilarning pedagogik kompetentligini shakllantirishning uslubiy va dasturiy vositalari. Fan, ta'lim va amaliyot integratsiyasi., 2023. №4., 6-b.